

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI (2022- yil yanvar- iyun oylari uchun, dastlabki ma'lumotlar)

Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2022- yil 1 iyul holatiga ko'ra **1962,4** ming kishini tashkil etib, 2022- yil boshidan **13,9** ming kishiga yoki **0,7 %** ga ko'paydi. Jumladan shahar aholisi soni **961,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0 %**), qishloq aholisi soni **1001,1** ming kishi (**51,0 %**) ni tashkil etdi.



Doimiy aholi soni

Ming kishi

1962,4



✓ Tug'ilganlar soni

18,8



✓ O'lganlar soni

4,4



✓ Nikohlar soni

7,3



✓ Ajrimlar soni

1,1



✓ Ko'chib kelganlar soni

4,3



✓ Ko'chib ketganlar soni

4,8



Shahar joylarda

961,3 ming kishi


Doimiy aholi soni

1962,4 ming kishi

Qishloq joylarda

1001,1 ming kishi

Doimiy aholi sonining tuman (shahar) lar bo'yicha taqsimlanishi (1 iyul holatiga ko'ra, ming kishi)





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **59,2 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,0 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar (yanvar- iyun oylari uchun, ming kishi)

	2022- yil
Doimiy aholi soni	1962,4
Tug‘ilganlar	18,8
Vafot etganlar	4,4
Aholining tabiiy o‘sishi	14,4
Kelganlar	4,3
Ketganlar	4,8
Migratsiya saldosi	-0,5
Tuzilgan nikohlar	7,3
Nikohdan ajralishlar	1,1


1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille

tug‘ilish	19,4
o‘lim	4,5
aholining tabiiy o‘sishi	14,9
tuzilgan nikohlar	7,5
nikohdan ajralishlar	1,1

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar- iyun oylarida **18,8** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (*bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi*), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **19,4** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,8 promillega ko'payganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- iyun oylarida 17,6 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tuman (shahar)lar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2022- yil yanvar- iyun)



Vafot etganlar. 2022- yilning yanvar- iyun oylarida **4,4** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko'payganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- iyun oylarida 4,4 promille bo'lgan).

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2022- yil yanvar- iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



2022-yilning yanvar- iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,6 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,6 %i - o'simtalardan, 6,0 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,7 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,5 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 %i – yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 15,9 %i – boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Tabiiy o'sish. 2022- yilning yanvar- iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi **14,4** ming kishini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **1,8** ming kishiga (2021- yilning yanvar- iyun oylarida **12,6** ming kishi bo'lgan) ko'paygan.

Tabiiy o'sish — 14,4 ming kishi




Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohlar soni

(yanvar- iyun oylari uchun, birlik)



Tumanlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti

(2022- yil yanvar- iyun oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)




Tumanlar bo'yicha 2022- yilning yanvar- iyun oylarida eng yuqori nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Nukus tumanida** (9,3), **Qo'ng'iroq** (8,6), **Beruniy** (8,5) va **Amudaryo** (8,2) kuzatildi.


Tumanlar bo'yicha 2022- yilning yanvar- iyun oylarida eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) **Taxtako'pir** (6,0), **Shumanay** (5,9), **Mo'ynoq** (5,7), va **Qonliko'l** (5,6) tumanlarida kuzatildi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha nikohdan ajrashganlar
soni to'g'risida ma'lumot**
(yanvar- iyun oylari uchun, birlik)




Tumanlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti
(2022- yil yanvar- iyun oylari uchun, 1000 aholiga nisbatan)



Tumanlar bo'yicha 2022- yilning yanvar- iyun oylarida eng yuqori nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Taxtako'pir** (1,5), **Nukus shahrida** (1,4), **Nukus** (1,4) va **Qo'ng'iroq** (1,2), tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar bo'yicha 2022- yilning yanvar- iyun oylarida eng kam nikohdan ajralish koeffitsiyenti (promille) **Qonliko'l** (0,9), **Shumanay** (0,8), **To'rtko'l** (0,7) va **Bo'zatov** (0,7) tumanlarida kuzatildi.





Aholi migratsiyasi



	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	
	Ko'chib kelganlar soni, kishi	7254	4316
	Ko'chib ketganlar soni, kishi	11492	4820
	Migratsiya saldosi, kishi	-4238	-504

Migratsiya (Ichki va tashqi migratsiya qo'shilgan holda). 2022- yil yanvar- iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4316 kishini tashkil etdi.

2022- yil yanvar- iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib ketganlar soni 4820 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldoasi. 2022- yil yanvar- iyun oylarida migratsiya saldoasi minus 504 kishi bo'lib, 2021- yilning mos davrida minus 4238 kishi bo'lган.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI

**Tuman (shahar)lar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(2022- yil yanvar- iyun oylari uchun, kishi)**

	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4316	4820	-504
Nukus shahri	1618	962	656
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	118	299	-181
Beruniy	132	172	-40
Bo‘zatov	51	129	-78
Qorao‘zak	120	193	-73
Kegeyli	180	302	-122
Qo‘ng‘irot	204	269	-65
Qonliko‘l	151	202	-51
Mo‘ynoq	108	76	32
Nukus	318	298	20
Taxiatosh	218	242	-24
Taxtako‘pir	63	149	-86
To‘rtko‘l	197	253	-56
Xo‘jayli	335	357	-22
Chimboy	194	481	-287
Shumanay	144	199	-55
Ellikqal‘a	165	237	-72



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

STATISTIKA BOSHQARMASI



Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2022- yil 1 iyul holatiga **332,1** ming kishini tashkil etib, 2022- yil boshidan **3,1** ming kishiga yoki **0,9 %** ga o'sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(*1000 aholiga nisbatan promille*)

2021 yilning
yanvar-iyun
oylarida

2022 yilning
yanvar-iyun
oylarida

Tug'ilish

16,6



19,6

2022- yilning yanvar- iyun oylarida Nukus shahrida **3,2 ming** bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan **19,6** promilleni tashkil etdi (2021- yilning mos davrida **16,6** promille bo'lgan).




Nukus shahrida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar



Nikoh. FHDYO organlarida 2022- yilning yanvar- iyun oylarida **1213** ta nikohlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **7,4** promilleni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **1,6** promillega kamaygan (2021- yilning mos davrida **9,0** promille bo'lgan).

Nikohdan ajralishlar FHDYO
 organlarida 2022- yilning yanvar- iyun oylarida **229** ta nikohdan ajralishlar qayd etildi va 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **0,6** ga ko'paydi. 2021- yilning mos davrida **0,8** promille bo'lgan.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasining
Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi**

Tel: (61) 224-92-17 (61) 222-76-57